



ADOLATNING ILK AYOL QIYOFASI – AKADEMIK XADICHA SULAYMONOVA MATONATI HAQIDA

Maxamadaliyeva Xusnida Akmaljon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Huquq olami – bu shunchaki qonunlar to'plami emas, balki inson taqdirleri hal qilinadigan, haqiqat va adolat o'rtasidagi nozik muvozanat saqlanadigan muqaddas dargohdir. O'zbekiston huquqshunosligi tarixida bu dargohning eng yorqin va o'chmas siymolaridan biri, shubhasiz, ilk akademik ayol Xadicha Sulaymonova hisoblanadi. Uning hayot yo'li matonat, ilmga sadoqat, ortga chekinmaslik va adolatga bo'lgan e'tiqodning jonli timsolidir.

XX asrning birinchi yarmi O'zbekiston uchun tub burilishlar davri edi. 1913-yilda Andijon viloyatida ziyoli oilasida dunyoga kelgan Xadicha uchun hayot oson kechmadi. O'sha davrning og'ir ijtimoiy muhitida ayol kishining huquqshunos bo'lishi – bu nafaqat orzu, balki katta jasorat talab qiladigan tanlov edi. Uning qalbida adolatga bo'lgan ilk uchqun san'atkor Nurxon Yo'ldoshxo'jayevaning fojiali qotilligi ustidan o'tkazilgan sud jarayonida uyg'ondi. O'shanda yosh Xadicha sud zalida qat'iyat bilan so'zlagan ayol Tojixon Shodiyevaning siymosida o'zligini ko'rdi va qonun kuchi bilan zulmga qarshi turish mumkinligini anglab yetdi.

Xadicha Sulaymonova o'z ilmiy pedagogik faoliyatida ham, kasbiy faoliyatida ham “birinchi” degan sharaflı nomga ko'p bor sazovor bo'ldi. U O'zbekistonda yuridik fanlar bo'yicha doktorlik darajasini olgan ilk ayol, Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylangan yagona huquqshunos olimadir. Uning ilmiy faoliyati quruq nazariyalardan iborat emas, u har bir maqolasida, har bir tadqiqotida inson huquqlarini himoya qilishni oliy maqsad deb bilgan. Akademik Sulaymonova o'z tadqiqotlarida O'zbekiston jinoyat huquqini rivojlantirish, davlat qurilishi va xalq xo'jaligini boshqarishda kengashlarning rolini oshirishga katta e'tibor beradi. U O'zbekistonning taniqli huquqshunos olimlari bilan birga hamkorlikda bir necha huquq sohasida jildlik yirik asarlar yozadi, uning rahbarligida jinoyat huquqi bo'yicha o'zbek tilida birinchi darslik tayyorlanib nashr etiladi. Shu bilan birgalikda u 1954-yilda Toshkent yuridik instituti rektori, 1956-958-yillarda O'zbekiston SSR Adliya vaziri, 1959-1964-yillarda O'zbekiston SSR Vazirlar Soveti huzuridagi Yuridik komissiya raisi, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi deputati, 1964-yildan – O'zbekiston SSR Oliy sudi raisi kabi yuksak lavozimlarda ishladi.

Xadicha Sulaymonova Adliya vaziri va Oliy sud raisi kabi yuksak lavozimlarda ishlagan davrida o'zini nafaqat rahbar, balki adolat himoyachisi sifatida ko'rsatdi. Uning bevosita ishtirokida O'zbekiston SSR ning sud tizimi, jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik va fuqarolik-protsessual kodekslari to'g'risidagi yangi qonunlar ishlab chiqildi. U qonunni shunchaki jazo quroli emas, balki insonni himoya qiluvchi qalqon darajasiga ko'tarishga intildi. Hozirda uning nomi bilan ataluvchi Respublika sud ekspertizasi markazining tashkil



etilishi esa uning dalillarga asoslangan adolatli sudlov tizimini yaratish yo'lidagi ulkan xizmati edi.

Akademik Sulaymonova faoliyatining eng sharaflari va og'ir sahifalaridan biri esa 1930-1950-yillardagi siyosiy qatag'on qurbonlarini oqlash jarayonidir. Minglab nohaq ayblangan, oilasidan va hayotidan ayrilgan insonlarning nomini tozalash uchun u o'z hayotini ham xavf ostiga qo'yib kurashdi. Uning adolat oldidagi mas'uliyati shunchalik kuchli ediki, hatto o'sha davrning eng yuqori martabali amaldorlari oldida ham haqiqatni aytishdan cho'chimadi. 40 mingda ziyod shaxsning rehabilitatsiya qilinishi uning matonati va insonparvarligidan dalolat beradi.

Men nimaga ushbu maqolamda aynan Xadicha Sulaymonova haqida yozmoqdaman, chunki u bir ayol, u bir qiz o'laroq o'z maqsadlari sari olg'a qadam tashlamoqlikdan, yiqilganda ham qayta turmoqlikdan, tariximizda yomon kunlar bo'lgan taqdirda ham ayol bo'lishiga qaramay nohaq ayblangan insonlarni oqlash uchun o'z hayotini xavf ostigada bo'lsin qo'ymoqlikdan va aynan adolat qaror topishi uchun tinmay o'qib-o'rganmoqlikdan aslo charchamadi. Akademik Xadicha Sulaymonovanning hayot yo'li shunchaki bir o'tmish xotirasi emas, balki biz – bugungi va ertangi kunning davomchilari uchun yashash darsligi ekanligini angladim. Uning siymosi menga bir haqiqatni uqtirdi: “Ayol kishi zaifa emas, u jamiyatning eng og'ir yukini yelkasida tutib turgan va adolat tarozisini muvozanatda saqlagan qudratli kuchdir”.

Aziz tengdoshim, opa-singlim! Agar sizning ham qalbingizda ilmga bo'lgan tashnalik, adolatga bo'lgan ishtiyoq yoki biror cho'qqini zabt etish orzusi bo'lsa, hech qachon ortga chekinmang. Xadicha Sulaymonovaniing matonati bizga shuni o'rgatadiki, ilm bilan qurollangan ayol dunyoni o'zgartirishga qodir. Bizning bilimimiz – bizning qurolimiz, bizning qat'iyatimiz – bizning kelajagimizdir. Zotan, milatning yuksalishi uning bilimli va jasoratli qizlaridan boshlanadi!